

QANDOLATCHILIK KORXONASIDA INTEGRALLASHGAN SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

Valiyeva Shoxsanam Saidovna

*“Metrologiya, texnik jihatdan artibga solish,
standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasida magistranti
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri
Tel: 94 546 12 99*

ANNOTATSIYA

Ilmiy - tadqiqot ishida sifatni boqarishning zamonaviy talablari bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy qilish, sifat tizimi modelini yaratish va ishlab chiqarish korxonalaridagi sifat tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari, sifat menejmentini tizimida va uni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy qoidalar, amaliy natijalarni ishlab chiqish, qandolatchilik korxonalarida sifat menejment tizimining tahlilini amalga oshirish, etkazib beruvchi kichik korxonaning sifat tizimini takomillashtirish uslublarini tanlash va asoslash, sifat menejment tizimini takomillashtirish samaradorligini aniqlash yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Внедрение системы менеджмента качества на производственных предприятиях в соответствии с современными требованиями контроля качества в научно-исследовательской работе, создание модели системы качества и направлений развития системы качества на производственных предприятиях, методических правил системы менеджмента качества и ее совершенствование, развитие практических результатов, управление качеством кондитерских предприятий научных в направлении выполнения анализа системы, выбора и обоснования методов улучшения системы качества малого предприятия поставщика, определения эффективности повышения качества система управления исследования были проведены.

Introduction of the quality management system in production enterprises according to the modern requirements of quality control in scientific and research work, creating a quality system model and directions for the development of the quality system in production enterprises, methodological rules for the quality management system and its improvement, development of practical results, quality management of confectionery enterprises scientific in the direction of performing the analysis of the system, choosing and justifying the methods of improving the quality system of the supplier's small enterprise, and determining the efficiency of the improvement of the quality management system researches have been conducted.

Kalit so‘zlar: sifat menejmenti, qandolat mahsulotlari, standart.

INTRODUCTION

Bu qandolat mahsulotlari bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilayotgan bir paytda, ularning sifat talablari, standart bo'yicha javob bera olish qobiliyati haqida aniq va keng ma'lumotlar berib boriladi. Qandolat mahsuloti tarkibiga kiruvchi konfet mahsuloti haqida gap ketganda, uning turlari, qadoqlash ham nazarda tutiladi.

Konfetlar resepturasiga qarab quyidagi assortimentlarga bo'linadi:

Shokoladli va yog'li glazurlangan to'ldirmali:

- sutli;
- shokoladli krem bilan;
- karamelli nuga eryong'oqli;
- quyiltirilgan sutli;
- pralinli.

Konfetlarni ustki qismi yaxlitiga yoki qisman yarim tayyor mahsulotlar yoki ozuqaviy mahsulotlar bilan bezatiladi.«Konfetlar», Ts 22706485-01:2014 tashkilotning standarti «Konfetlar» texnikaviy talablar standarti talablariga va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan texnologik yo'riqnoma bo'yicha va konditer korxonalarini sanitariya me'yori va talablariga mos ravishda ishlab chiqariladi.

Konfetlar o'ralgan; o'ralmagan donali, qadoqlanmagan va qadoqlangan, aralashma va yig'ma holda ishlab chiqariladi.

Konfetlar etiketkalariga, etiketka va ichki o'raladigan qavat bilan, etiketka folga bilan, etiketka folga va ichki o'raladigan qavat bilan o'raladi.

Etiketkalar va ichki o'raladigan qavat uchun quyidagilar qabul qilinadi: GOST 7625 bo'yicha etiketka uchun qog'oz, GOST 18510 bo'yicha yozuv qog'ozi, GOST 9094 bo'yicha pechat kogozi, GOST 9569 bo'yicha parafinlangan qog'oz, GOST 745 bo'yicha folga, GOST 1760 bo'yicha podpergament, GOST 1341 bo'yicha pergament, GOST 7730 bo'yicha sellofan, polimer va boshqa qadoqlash uchun ishlatiladigan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlatishga ruxsat berilgan material ishlatiladi.

Etiketkalaridagi buyoqlar mustahkam va konfetni ustiga o'tmasligi kerak. Parafinlangan qog'ozli etiketka va ichki o'raladigan qavatdagi materiallar begona hidlarsiz bo'lishi kerak.

Konfetni ustidan o'raladigan ichki va tashqi etiketkalar unga jips o'ralgan, lekin undan tez ajraladigan bo'lishi kerak. Qabul qilish koidalari

Mahsulotning qabul qilish qoidalari - GOST 5904 bo'yicha.

Mahsulotlarning har bir to'pi mahsulotning sifati haqidagi guvohnomasi rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak va unda quyidagi ma'lumotlar bulishi kerak:

- guvoxnoma raqami va u berilgan sana;
- ishlab chiqaruvi korxonasi nomi;
- mahsulotning to'lik nomi va to'p raqami;

- joylanmalarning joylash birliklari soni va bir joylash birligining netto massasi;
- saqlash sharoitlari;
- yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);
- ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);
- O'zDSt 5.8 bo'yicha muvofiqlik belgisi;
- mazkur tashkilot standartining belgilanishi.

O'ralgan konfetlar qadoqlangan va qadoqlanmagan qutilarda, to'plamlarda yoki paketlarda ishlab chiqariladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarzida boshqarilganda kutilgan natija samarali bo'ladi. SMT bazaviy modeli sharoitlarida tashkilot bu tamoyil asosida mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish va etkazish jarayonlarini aniq belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni samaraliroq boshqarish va sifatning talab qilingan darajasiga erishish uchun resurslar va faoliyatni bitta jarayon sifatida qarash kerak: Kutilgan natijaga erishish uchun jarayonlarni belgilab olish; Jarayonlarni kirish va chiqish ma'lumotlarini aniqlash va o'lchash; □ Tashkilot funksiyasi bilan jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash, □ Jarayonlarning mijozlarga, etkazib beruvchilarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ta'siri, natijasi va mumkin bo'lgan tavakkalchiligini (risk) baholash; Jarayonlarni boshqarish uchun aniq vazifalar, vakolat hamda javobgarligini belgilash; □ Ichki va tashqi mijozlarni, etkazib beruvchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni belgilash; Kutilgan natijaga erishmoq uchun jarayonlarni loyihalash paytida jarayonlarning odimlari, harakati, oqimi, boshqarish o'lchovi, o'qishga bo'lgan talablar, jihozlar, usullar, ma'lumotlar, materiallar va boshqa resurslar qaralishi kerak.

Boshqarishga tizimli yondoshish. Tashkilot o'z maqsadlariga erishishda o'zaro bog'liq jarayonlarni aniqlashi, tushunishi va boshqarishi korxonani samaradorligi va yuqori tashkiliy – texnikaviy darajasiga hissa qo'shadi.

SMT bazaviy modelini ishlab chiqishda bu tamoyil, tashkilot mahsulot yoki xizmatlarni yaratish jarayonlarini mahsulot yoki xizmatlarni buyurtmachi ehtiyojlariga muvofiqlikka tekshirish jarayonlari bilan birlashtirishga harakat qilayotganligini ta'kidlaydi.

Bir-biri bilan o'zaro bog'liq jarayonlar tizimini tuzish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ularni boshqarish tashkilotning samarali ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek tizimli yondashuv o'lchashlar va baholash orkali tizimning doimiy yaxshilanishiga olib keladi.

Mahsulot moddiylashtirilgan (qism, buyum) yoki moddiylashtirilmagan (axborot, xizmat) yoki ularning o'zaro uyg'unlashgan birikmasi bo'lishi mumkin. Mahsulotning yaratilishida, sotilishida, yoki iste'molida (ishlatilishida) ya'ni "xayoti davrida" namoyon bo'ladigan xususiyatlari uning xossalaridir.

“Mahsulotning sifati” - uning vazifasiga binoan muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqliligini belgilaydigan xossalar majmuasidir. Mahsulotning sifati, uni tashkil etuvchi qismlarning sifati majmuasidan tashkil topadi.

“Mahsulot sifatining ko‘rsatkichi” deb, mahsulot sifatiga kiruvchi xossasining miqdoriy tavsifiga aytiladi.

Sifat ko‘rsatkichlari quyidagi asosiy talablarga javob berishlari lozim: ular turg‘un bo‘lishi kerak; mahsulotning samarasi bo‘lishi kerak; fan va texnika yutuqlari inobatga olingan bo‘lishi kerak; muayyan vazifasiga ko‘ra ma'lum ehtiyojlarni qondirishga layoqatli bo‘lishi kerak.

“Mahsulotning xavfsizligi” - uning murakkab xossasi bo‘lib, inson, uning mulki, tabiat va atrof-muhit uchun zararsiz ta'sir etish miqdorini belgilaydigan ko‘rsatkichlaridir.

Mahsulotning muayyan ehtiyojga mos kelish darajasi va ehtiyojni qoniqtirishdagi harajatlar bo‘yicha raqobatdagi mahsulotlardan ajralib turishini ifodalovchi tavsifi uning “raqobatbardoshligi” deb ataladi.

Mahsulotning belgilangan sifat ko‘rsatkichlarini tanlash, bu ko‘rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash va ularni boshqa mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari qiymatlari bilan taqqoslashni o‘z ichiga oluvchi faoliyat “mahsulot sifatining darajasini baholash” deb ataladi.

XULOSA

Mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat va xavfsizlik menejment tizimlari bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilindi va menejment tizimlari tushunchasi hamda O‘zbekiston Respublikasidagi menejment tizimlari standartlari sharhlendi. Sifat menejment tizimini loyihalashtirish va ishchi holatda saqlash bo‘yicha ma'lumotlar o‘rganildi. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejment va xavfsizlik menejmentida xavflarini tahlil qilish bo‘yicha qandolatchilik korxonalarida ko‘llash tamoyillari ko‘rib chiqildi. Qandolatchilik mahsulotlari turlari va ularga qo‘yilgan talablari o‘rganildi. Qandolatchilik korxonasida integrallashgan sifat va xavfsizlik menejment tizimini ishlab chiqish usuli taklif qilindi. Sifat va xavfsizlik menejment tizimlarini birlashtirish masalalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Sifat va xavfsizlik menejment tizimlarining texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash va tahlil qilish metodikasi ishlab chiqildi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Abduvaliev A.A., Alimov M.N., Boyko S.R., Miragzamov M.M., Sabirov M.Z. Osnovi standartizatsii, sertifikatsii i upravleniya kachestvom. Uchebnoe posobie, Tashkent. Iz-vo «Fanvatehnologiya» 2005 g. –s-535.
2. Alimov M.N. Standartizatsiya v Uzbekistane. (Vospominaniya) Posvyashaetsya 80-letiyu standartizatsiya v Uzbekistane. Uchebnoe posobie. Tashkent 2005, izd. «Adolat», otpechatano v tipografii iz-vo «Fanvatehnologiya» - 498 s.
3. Fomin V.N. Upravlenie kachestvom. Sertifikatsiya: Uchebnoe posobie. -2-e izd., pererab. I dop. –M.: Os-89, 2005. -348 s.